

TARJIMA NAZARIYASI: TURLARI, XUSUSIYATLARI VA TASNIFLARI**Qosimova Yayra Maxmudovna**

O'zDJTU o'qituvchisi

yayra.76@mail.ru**Egamberdiyeva Umidaxon Elmurod qizi**

TNEM 2417gr.talabasi

umidaxonegamberdiyeva41@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima nazariyasi turlari, xususiyatlari, tasniflari bilan birga hozirgi kunda tarjima va tarjimonning o'rne, tarjimaning insoniyat o'rtasidagi vazifasi ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Tarjima nazariyasi, tarjimonlik san'ati, badiiy va amaliy tarjima, madaniyatlararo muloqot, tarjima jarayoni, og'zaki va yozma tarjima, tarjima usullari, ekvivalentlik.

Tarjima insoniyat madaniyatining ajralmas qismi u turli xalqlar o'rtasida madaniy, ilmiy, siyosiy va iqtisodiy aloqalarni bog'lovchi va rivojlantiruvchi ko'prikdir. Tarjima bu faqatgina so'zlarni tushunish va ularni boshqa tilga o'girish emas balki madaniyatlar o'rtasidagi muloqot vositasi. Tarjima qilinadigan matnlar turli janrga, uslubga va maqsadga ega bo'ladi. Shu bois har bir mutaxassis tarjimon tarjima turlarini bilishi ularni to'g'ri tasniflay olishi juda zarur.

Tarjima nazariyasi fan sifatida tarjima jarayonini uning qonun qoidalarini, xususiyatlari va semantik bir xilliklarni o'rganadi.

XX asrda o'zbek adabyoti, tarjimashunoslik, adabiy tanqid hamda matnshunoslik yo'nalishlarida katta ilmiy ishlar olib borgan o'zbek adabiyotshunosligi va tarjima nazariyasi sohasidagi taniqli olim G'aybulla Assalom. Olim G'aybulla Salomov o'zbek tarjima nazariyasi va tarjima maktabi asoschisidir. U tarjimani nafaqat til o'zgartirish jarayoni, balki madaniyatlararo muloqot va badiiy tafakkur ko'prigi sifatida talqin qilgan.

Tarjima nazariyasi – bir tildagi matinni boshqa tilga o'girish va shu jarayondagi qonuniyatlar, usullar amaliyotda to'plangan tajribalarni umumlashtirib, tarjimaning mohiyati, usullarini o'rganuvchi ilmiy fan. Ya'ni tarjima nazariyasi nafaqat tarjima qilish, balki tarjima qay tarzda amalga oshirilishi, madaniy uyg'unlashish, tarjimalarning ba'zilar muvafaqqiyatli-yu, ba'zilar unday emas – shularni tahlil qiladi.

Tarjima nazariyasining asosiy vazifalari: tarjima jarayonining til, uslub va madaniy asarlarni o'rganish, tarjimonlar uchun metodik asarlar ishlab chiqish, tarjima jarayonidagi ijodiylik va mas'uliyat masalalarini tahlil qilish va turli tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni o'rganish.

Amaliy tarjima fanining predmeti bu bir tildagi matinni ikkinchi tilga mazmun va shakl jihatdan ekvivalent tarzda ifodalash jarayonidir. Amaliy tarjimaning asosiy turlari tarjima shakliga ko'ra: yozma tarjima va og'zaki tarjima.

Yozma tarjima: hujjat, maqola, badiiy asarlar, kitob tarjimalari.

Og'zaki tarjima: jonli nutqni tarjima qilish. Og'zaki tarjima turlari: 1. Ketma-ket tarjima: real vaqt rejimida tarjima amalga oshiriladi. Tarjimon so'zlovchining nutqi to'xtaganidan keyin darhol uni tarjima qiladi va bu jarayonda so'zlovchi tarjimonga kichik-kichik tanafuslar berib nutqini tarjima qilishiga imkon yaratadi. Har qanday nutqda 2 ta asosiy lahza bor bu nutqning boshlanishi va tugashi tarjimon buni anglashi lozim. Ketma-ket tarjmada tarjimon so'zlovchining nutqini eslab qolishi, biron bir so'z tarjimasini bilmay qolsa uni anglab, kontekstdan kelib chiqqan holda to'ldira bilishi kerak. 2. Sinxron tarjima: bu tarjima turi eng qiyin tarjima turi hisoblanadi chunki tarjima real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Sinxron tarjimadan odatda, xalqaro konferensiya, yig'ilishlar, rasmiy uchrashuvlarda foydalaniladi. Sinxron tarjima qiluvchi tarjimon konferensiya zalida maxsus kabinada o'tiradi ular 2 nafar bo'ladi jarayon davomida har bir tarjimon 15 daqiqadan almashilingan holda faoliyat yuritadi. Sinxron tarjimada tarjimonlar ma'ruzachilarning nutqlari tushirilgan varoqni oldindan o'qib chiqadi, ammo, konferensiya davomida tarjimonlar har bir gap nutq so'zlovchi bilan bir xil ketayotkanligiga va nutq so'zlovchi rejadan tashqari so'z boshlaganda darhol anglab tarjima qilib keta olishi zarur. 3. Shivirlab tarjima: bu tarjima turida tarjimon konferensiya zalida maxsus kabinada emas, balki tarjima kerak bo'lgan shaxsning yonidagina o'tiradi va real vaqt rejimida tarjimon tinglovchining o'ng qulog'iga pichirlab tarjimani amalga oshiradi, albatta, bu tarjima turi ham o'ziga yarasha murakkab.

Og'zaki tarjima nutq paytida real vaqt rejimida amalga oshirilgani bois tarjimon maruzahining so'zlarini tinglab, darhol boshqa tilde ifodalaydi. Xususiyatlari: vaqt cheklangan, tezkorlik, aniqlik, kuchli xotira, tezkor reaksiya talab qiladi va bu jarayonda deyarli xatoni to'g'irlash imkoni mavjud emas.

Badiiy tarjima-adabiy asar (roman, hikoya, sher va damma)larni tarjimasini. Bu jarayonda so'zlarning ma'nosi bilan birga uslub, tuyg'u va madaniy kontekst ham hisobga olinadi.

Ilmiy tarjima- ilmiy asarlar, maqolalar va tadqiqotlar tarjimasini. Bu turda ilmiy atamalar va konseptlar aniq tarjima qilinishi talab etiladi.

Texnik tarjima-texnik hujjatlar, ko'rsatmalar, texnik pasportlar va qo'llanmalar tarjimasini. Texnik sohada aniq atamalardan foydalanish muhim.

Yuridik tarjima- qonunlar, qarorlar, farmoyishlar va shartnomalar tarjimasini. Har bir so'z va iborani huquqiy ma'nosini to'g'ri bilish lozim.

Tibbiy tarjima- tibbiyot sohasiga oid adabiyotlar va hujjatlar tarjimasini. Maxsus tibbiy terminologiyaga e'tibor berish zarur.

Mashina tarjima-kompyuter dasturlari orqali avtomatik tarzda tarjima qilish. Mashina tarjima soʻzma-soʻz tarjimaga asoslanadi va tarjima koʻpincha inson tomonidan tahrirni talab qiladi. Masalan: google translate, ChatGPT...

Qisman tarjima-matnni faqat 1 qismi yoki muhim maʼlumotlarni tarjima qilish. Bunda matinni umumiy mazmunini ifodalashda foydalaniladi.

Adabiy tarjima-badiiy asarlar. Tarjimondan ijodiy bilim va tarjimaning estetik jihatdan goʻzal boʻlishi talab qilinadi.

Audiovizual tarjima- subtitrl tarjima, dublyaj va video tarjima. Bu tarjima turi kino, serial, hujjatli film, oʻquv videolari, reklama roliklari tarjimasida ishlatiladi. Bu tarjima lingvistik+madaniy murakkab.

Interlineal tarjima-soʻzma-soʻz tarjima. Asosiy maqsad har bir soʻz yoki iborani lugʻaviy maʼnosini aniq tarjima qilish. Ishlatiladi: tilni tadqiq qilish yoki oʻrganishda.

Tarjima shunday tasniflanadi:

1. Sifati boʻyicha-erkin, harfma-harf, adekvat, aniq, haqiqiy, sertifikatlangan
2. Bajarilish usuli boʻyicha-qoʻlyozma, mashina, aralash, mualliflik, vakolatli
3. Til nisbatiga koʻra-interlineal (1 til ichida), interlingval (1 tildan boshqasiga), diaxronik (eski tildan zamonaviysiga), intersemiotik (matndan belgiga yoki boshqa tizimga)

4. Toʻliqlik darajasiga koʻra-toʻliq, qisqartirilgan, fragmentar, aspektual. Fragmentar tarjima-matinni maʼlum bir qismi yoki parchasi yaʼni muayyan bir boʻlim, bob yoki gʻoyani oʻz ichiga olgan qismi. Aspektual –matnni faqat maʼlum mavzu yoki jihatga oid qismi yaʼni maʼlum bir aspekt, yoʻnalish, tema, fakt va gʻoya tarjima.

5. Manba bilan bogʻliqligiga koʻra-toʻgʻridan toʻgʻri yaʼni asl matinni aynan boshqa tilga oʻgirish (F. Dostoevskiy, Jinoyat va jazo, SH. Sulaymon tarjima), bilvosita yaʼni asl matinni boshqa tilga oʻgirilgan variantidan yana bir boshqa tilga oʻgirish (A. S. Pushkin, Yevgeniy Onegin, Oybek tarjima qilgan), teskari tarjima- matinni boshqa tilga oʻgirilgan variantidan foydalanib qayta asl tilga oʻgirish.

Tarjima nafaqat soʻzlarni boshqa tilga oʻgirish, balki madaniyatlararo muloqotni amalga oshiruvchi ijodiy faoliyat, insoniyatni birlashtiruvchi madaniy muhim vositadir. “Yaxshi tarjima-bu asl asar ruhini yangi tilde qayta tugʻilishidir.”-Goethe (nemis shoiri va faylasufi)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Goethe, West-östlicher Divan, 1819
2. Qosimov, S. Tarjima nazariyasi asoslari. 2012.
3. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall. 1988.
4. Alimov, S. Tarjima nazariyasi va amaliyoti 2019.
5. I, Gʻofurov, O. Moʻminov, N, Qambarov- Tarjima nazariyasi